

**PEDAGOGIK TASHXISLASH ASOSIDA O‘QITUVCHINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH****Begimqulova Mastona Amiraliyevna****Bo‘ronova Sarvinoz Xolmo‘min qizi**

Termiz davlat pedagogika institut talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish zaruriyati, yoshlarga bilim beruvchi, ularga axloqiy sifatlarni singdiruvchi pedagogning o‘zi qanday kasbiy va tarbiyaviy kompetentlikka, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerakligi, ularni egallash usullari, yo‘nalishlari va vositalari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, kompetentlik, o‘qituvchi, pedagog, tarbiya.

Аннотация. В данной статье приведены размышления о необходимости формирования профессиональной компетентности учителя, о том, какими профессиональными и воспитательными компетенциями, педагогическим мастерством должен обладать педагог, дающий знания молодежи, прививающий ей нравственные качества, методы, направления и средства их приобретения.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, учитель, педагог, воспитание.

Abstract. This article discusses the necessity of forming a teacher's professional competence, the professional and educational competence and pedagogical skills that a teacher who educates and instills moral qualities in young people should possess, as well as the methods, directions, and tools for acquiring them.

Keywords: Competence, competency, teacher, educator, upbringing.

Hozirgi kunda mustaqil davlatimizning yagona maqsadi insonparvar, demokratik-huquqiy jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarilish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallash bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishda ijobiy natijalarga ega bo'lish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda teran tafakkurni hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'limtarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz deb ta'kidladilar. Demak, zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh,



Learning and Sustainable Innovation

tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’limning sifati va mazmunini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bugungi kun o‘quvchi- yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, keng dunyoqarash egalari sifatida shakllantirishda o‘qituvchilar o‘ziga xos qobiliyat va kasbiy kompetentlik egasi bo‘lishini taqozo etmoqda. O‘qituvchining kasbiy standarti tarkibida pedagogik kompetentlik muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda - mamlakatimizda uzluksiz ta’lim islohoti jadallik bilan olib borilayotgan paytda pedagogik kompetentlik muhim omil sifatida qaralmoqda.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o‘qituvchi ham “kompetentlik” nimani anglatishini va u “kompetensiya”dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi[7].

“Kompetensiya”- lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nosi “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

“Kompetentlik” tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatrsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Aleks Mur ko‘pqirrali qobiliyat tushunchasiga asos soldi. Ya’ni ko‘pqirrali qobiliyatlilik tushunchasi kompetentlik tushunchasiga mos kelib, uning fikricha “... ko‘p qirrali qobiliyatlar deganda, turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o‘rganilishi tushuniladi”.

Kompetentlik nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi.

G.V.Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

- insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va hokazo);
- faoliyat turlari bo‘yicha kompetentlik (mehnat, o‘quv, o‘yin, kasbiy);
- faoliyat yo‘nalgan obyektlar bo‘yicha kompetentlik (insontexnika, tabiat);



- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy);
- ijtimoiy bilimlar bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda); - ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogik, psixologik, ijodiy, texnik).

Zero, yuqorida qayd etilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuningdek, shaxs kompetentligi mazmuniga ko'ra 3 turga bo'linadi[6].

- **Standart kompetensiya** - ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati.
- **Asosiy kompetensiya** - ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati.
- **Yetakchi kompetensiya** - kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati.

O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi[5].

Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:



Learning and Sustainable Innovation

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi;
- kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi;
- birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik[4].

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa - bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Bu masalaga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitabida ham to'xtalib o'tgan: "Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasibugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm- fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz".

«O'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi - pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yuqori malakali o'qituvchi - mutaxassislar tayyorlash masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan: "Mazkur dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir".

Demak, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini sifat darajasiga ko'tarishda pedagogning kasbiy, tarbiyaviy, mafkuraviy kompetentligining o'rni beqiyosdir[3].

Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim pedagogik shartsharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:



- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;
- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompg'yuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbobuskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;
- ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit yaratilganligi;
- tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021. 230-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan tantanali bayramdagi nutqi. www.prezident.uz
3. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
4. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
5. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
6. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
7. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.